



**Boshlang'ich inklyuziv sinflarda yozma nutq kamchiliklarini rivojlantirishni
takomillashtirish**

**Qoqon universiteti Pedagogika psixologiya kafedrası o'qituvchisi Yuldashev
Sodirjon Jurayevich**

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ish boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan inklyuziv o'quvchilarning yozma nutqida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga doir normativ-huquqiy asoslar, xususan 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasida belgilangan inklyuziv ta'lim talablari tahlil qilinib, ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratishning amaliy mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek, M.Y. Ayupovanning "Logopediya" kitobida bayon qilingan O.A. Tokaryova tomonidan tasniflangan akustik, optik va motor disgrafiya turlari ilmiy asosda sharhlab berilgan hamda ushbu buzilishlarning o'quvchilarning yozma nutq malakalari shakllanishiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish va so'rovnoma metodlari qo'llanildi. Ona tili darsliklari, mashq va topshiriqlar tizimli tahlil qilinib, yozma nutq kamchiliklari ko'p uchraydigan mavzular aniqlandi. Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi bir nechta maktablarda 100 nafar inklyuziv o'quvchi va 10 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, o'quvchilarning yozma nutqida eng ko'p uchraydigan xatolar – harflarni chalkashtirish, jarangli-jarangsiz undoshlarni farqlamaslik, tinish belgilarini qo'ymaslik, yonma-yon kelgan harflarni tushirib qoldirish kabi muammolar aniqlangan. Kuzatuv natijalariga ko'ra, o'quvchilarning yozma nutqidagi kamchiliklar ko'proq ko'rish, eshitish, tayanch-harakat analizatorlari faoliyatidagi cheklanishlar bilan uzviy bog'liq ekani qayd etilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda individual yondashuv, differensial ta'lim, interfaol metodlar, logopedik mashqlar va ijodiy topshiriqlar samarali ekanini ko'rsatdi. Ish davomida ishlab chiqilgan tavsiyalar inklyuziv sinf o'qituvchilari, logopedlar va maxsus pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish,





nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda qo'llanilishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR: inklyuziv ta'lim; boshlang'ich sinf; yozma nutq; imlo xatolari; disgrafiya; akustik disgrafiya; optik disgrafiya; motor disgrafiya; differensial ta'lim; pedagogik kuzatish; so'rovnoma; ona tili darsligi; logopedik yondashuv; maxsus pedagogika; o'quvchilar savodxonligi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimimizni yanada rivojlantirish maqsadida yangi qonun va farmonlar qabul qilinayotgani bu ta'limga bo'lgan e'tiborni qanchalik o'sib borayotganini, sog'lom bolalar qatorida ta'lim olayotgan inklyuziv o'quvchilar misolida ko'rishimiz mumkin. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. 20-moddasi aynan inklyuziv ta'limga bag'ishlanadi. "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi"¹. Bunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, ta'limning sifat samaradorligini oshirish uchun imkoniyatlar yaratib beradigan amaliy dastur hisoblanadi. "Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda —Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Inklyuziv ta'lim sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsus (korreksion) dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmasligi lozim. Inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi.

¹ O'RQ-637-son 23.09. 2020. Ta'lim to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5013007>





Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi.

M.Y. Ayupovanning "Logopediya" kitobidan keltirib o'tilgan ushbu fikrga qarash: O.A. Tokaryova disgrafiyaning 3 turini: akustik, optik, motor disgrafiyalarni ajratib ko'rsatadi. Akustik disgrafiyada eshitish qobiliyatining tabaqalashmagani, tovushni analiz va sintez qilishning yetarli darajada rivojlanmagani kuzatiladi. Bunda tovush va artikulyatsion jihatdan o'xshash harflar o'rnini almashtirish, aralashtirish va ba'zi bir harflarni tushirib qoldirish, shuningdek, tovushni noto'g'ri talaffuzda eshitishning yozuvda qayd qilinish hollari kuzatiladi. Optik disgrafiya ko'rish orqali tasavvur eshitishning mustahkam emasligi bilan bog'liqdir. Bunda kishi ma'lum harflarni anglamaydi, bu harflar talaffuzdagi tovushga mos kelmaydi. Harflar turli paytlarda har xil qabul qilinadi. Ko'rish qobiliyatining notekisligi oqibatida ular yozuvda aralash-quralash bo'ladi. Ko'pincha quyidagi harflar qo'l yozmasining aralash kelishi kuzatiladi: p-n, p -i, s-i, sh-i, m-l, b-d, p-m , n-k.

Optik disgrafiyaning og'ir holatlarida so'zlarni yozish mumkin bo'lmay qoladi. Qator hollarda, ayniqsa chapaqay kishilarda harflarni qiyshiq yozish kuzatiladi. Bunda so'z, harf, harf elementlari o'ngdan chapga qarab qiyshaygan bo'ladi. Motor disgrafiya. Qo'lning yozuv paytida qiyin harakatga kelishi, motor obrazlaridagi aloqalarining, so'zlarning tovush va ko'rish obrazlari bilan birgalikdagi buzilishi unga xosdir."² Ushbu fikrlardan kelib chiqib yozma nutqdagi nuqsonlarning paydo bo'lishi ko'rishda eshitishda tayanch harakat organlarida paydo bo'ladigan muammolar natijasida kelib chiqishi va insonning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bilib olishimiz mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim tizimimizni tez suratlarda rivojlanayotganini boshlang'ich sinf o'quvchilariga bo'lgan e'tiborda hamda yangi zamonga mos o'quvchilarni ijodiy, tanqidiy, fikrlash imkoniyatini beradigan zamonaviy darsliklar orqali ko'rib o'tish mumkin. Ona tili darsliklarini kuzatish va tahlil qilish orqali darslikdagi mavzu ko'lami, bilan tanishib chiqish orqali o'quvchilarda kuzatiladigan muammolarni o'rganish va ularni oldini olish maqsadida og'zaki va yozma nutq kamchiliklarini aniqlashda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalandik:

² https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-04-07-26-05_2cb77d3b5180193f37e853bf02885347.pdf M.Y. Ayupovanning Logopediya kitobidan 400-bet





- Nazariy tahlil
- So'rovnoma
- Pedagogik kuzatish,

Nazariy tahlil: O'quv jarayonida ona tili darslarida yozma nutq rivojlantirishni o'rgatishning muhimligini va bu boradagi ilg'or usullarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu tahlil orqali mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va darsliklar tahlil qilinadi, ilg'or pedagogik yondashuvlar va metodlar o'rganildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda nazariy metodga tayanib, boshlang'ich ta'limga oid bo'lgan 2-sinf ona tili darslikligini va "Imkoniyati cheklangan bolalarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida logopedik ishlarni tashkil etish va rejalashtirish" nomli o'quv qo'llanmasini o'rganildi, hamda metod va usullar bilan tanishib chiqildi. Darsliklar tahlil qilinganda, diktant va yozma ishlardagi hatolarning turiga va o'quvchilarning nutq nuqsonining turiga qarab yozma nutqqa doir mavzular va mashq, topshiriqlar tahlil qilinib, taqqoslandi hamda bu tadqiqot natijasi natijalar qismida keltirib o'tilgan.

So'rovnoma: Ushbu so'rovnomaning Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidagi 11- 4-35- 16 - umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlanib, bu maktablardagi 100 nafar boshlang'ich inklyuziv sinf o'quvchilari va 10 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilar respondentlar sifatida tanlandi va ular o'rtasida likeard usulida so'rovnoma o'tkazildi. Ota-onalar roziligi bilan.

Pedagogik kuzatish: Boshlang'ich sinflarda, 2023/2024-o'quv yilidan amaliyotga joriy qilingan ona tili darsliklarini kuzatib, O'quvchilarda kuzatiladigan yozma nutq kamchiliklari kuzatiladigan mavzular doirasini belgiladik. Pedagogik kuzatish doirasida bir necha marta boshlang'ich inklyuziv sinf o'qituvchilari darsini kuzatdim va asosiy e'tiborni yozma nutq kamchiliklarga o'qituvchining dars jarayonida qo'llayotgan interaktiv usullari samaradorligiga qaratdik.

boshlang'ich inklyuziv o'quvchilarining ona tili darsliklaridagi yozma nutq kamchiliklari ko'p kuzatilayotgan mavzu doirasini belgilash bo'lib, kuzatuv asosidagi tahlillarimizni jadvalda ifodalashga harakat qildik.






1-jadval Ona tili darslikla tahlili

Sinflar 1- qismi	Yozma kamchiliklari nutq ko'p kuzatiladigan mavzular	Og'zaki topshiriq	Yozma topshiriq	Mavzular soni	O'quvchilarda kuzatilishi
1	Bo'g'in ko'chirish, X va H tovush va harflarini chalkashtirib yuborish, Tinish belgilarida, Aytilishi va yozilishda farqlanuvchi undoshlar	27 ta	49 ta	32 ta	28 tadan 10 tasida
2	Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar va J , X, H tovushlarning talaffuzi va imlosi	15 ta	54 ta	6 ta	25 tadan 7 ta
3	X va H tovush va harflarini chalkashtirib yuborish, Tinish belgilarida,	23 ta	46 ta	16 ta	30 tadan 5 ta
4	Egalik qo'shimchalari Ma'nodosh shakldosh va zid ma'noli so'zlarda	26 ta	54	21 ta	30 tadan 3 ta



Ona tili darsliklarida egallanadigan bilimlar mohiyatiga ko'ra yozma nutq kamchiliklari ko'p uchraydigan mavzularni o'rganib chiqildi.


Boshlang'ich inklyuziv sinf o'quvchilarining yozma nutq kamchiliklarini aniqlash va uni oldini olish maqsadida 100 nafar o'quvchilar, 10 nafar o'qituvchilar o'rtasida likeard usulida so'rovnoma o'tkazdik.



2-diagramma Maktablar o'rtasidagi tafovutlar Sizga yozma nutqingizni rivojlantirishda nima yordam beradi? savoliga respondentlarning fikrlari. Ushbu so'rovnoma savolini maktab kesmida 2-inklyuziv sinf o'quvchilari o'rtasida olib borildi. 4-maktab o'quvchilarining eng yuqori foizi Do'stlar bilan birga yozishni 11-maktabning eng yuqor foizi Do'stlar bilan yozishni, 16- maktabning eng yuqori foizi O'qituvchining yordami, 35-maktab eng yuqori foizi Diktant yozishni belgilashgan. Budan ko'rinib turibdiki o'quvchilar guruhda ishlashni samarali usul sifatida baholashdi.



Diktant yoki yozma ishlarda qanday xatolarni
ko'p takrorolaysiz?



3-diagramma O'quvchilar o'rtasida so'rovnoma Diktant yoki yozma yozma ishlarda qanday xatolarni ko'p takrorolaysiz?

Bolalar yozishda qanday qiyinchilikga uchrayotgani aniqlash maqsadida savolga respondentlarning javobi. So'rovnoma mazmuni ushbu savolga o'quvchilarning 58% Harfarni chalkashtirib qo'yaman. 23%Yonma- yon kelgan undoshlarni tushirib qo'yaman. 10 % Tinish belgilarini unutaman 9% Aytilishi va yozilishi farqlanuvchi undoshlarda adashaman. deb javob berishdi.

2-jadvalda. O'quvchilarda yozma nutq kamchiliklari turlarining foizi



Fargʻona viloyati Bagdod tumani 11- umummiy oʻrta taʼlim maktabi 2- A sinf
oʻquvchilar soni 25 ta. 23 tasi sogʻlom 2ta inklyuziv oʻquvchi

№	Xatò turlar	Sogʻlom bolalar	Zaif koʻruvchi	Zaif eshituvchi
1	Harflarni chalkashtirib yuborish	10 %	40%	50%
2	Jarangli undoshlarni jarangsiz farqlay olmasligi	15%	35%	50%
3	Tinish belgilarni qoʻyishni unitishi	12%	28%	60%
4	Yonma - yon kelgan unli va undosh harflarni tushirib qoldirishi	14%	36%	50%
5	Boʻgʻin koʻchirish	20%	40%	40%





Ushu tadqiqot natijasini Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumaning 2-A inklyuziv sinf o‘quvchilarida bilan metod va o‘yinlarsiz dars o‘tilgan, o‘quvchilar bilan individual ishlanilmaganda o‘quvchilarda uchraydigan yozma nutq kamchiliklarini turlari tahlil qilindi va uchrash foizini jadval asosida ifodalandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqida uchraydigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari chuqur o‘rganildi. Tadqiqot davomida yozma nutq – o‘quvchilarning fikrlash, muloqot qilish va o‘zini ifoda etish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita ekanligi ta’kidlandi. Ayniqsa, yozma nutq o‘rganilayotgan til vositalarini to‘g‘ri qo‘llash, grammatik me’yorlarga rioya qilish, fikrni izchil bayon etish kabi ko‘nikmalarga bevosita bog‘liq ekani aniqlashtirildi. Ish davomida olib borilgan kuzatuvlar, so‘rovnomalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning yozma nutqida eng ko‘p uchraydigan kamchiliklar – imlo xatolari, gaplarni grammatik jihatdan noto‘g‘ri tuzish, fikrni izchil bayon etmaslik, gap qurilishi va uslubiy xatolarga e’tibor qaratildi. Ushbu kamchiliklarning asosiy sabablari sifatida til vositalarining yetarlicha o‘zlashtirilmagani, og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi farqni anglamaslik, shuningdek, o‘qituvchining metodik yondashuvidagi yetishmovchiliklar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik usullar – diktantlar, ijodiy topshiriqlar, matn asosida fikr bayon qilish, gap tuzish mashqlari va nutqiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish mumkinligi ko‘rsatildi. Ayniqsa, individual yondashuv va differensial ta’lim tamoyillari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ijobiy natijalar bergani qayd etildi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini shakllantirish murakkab, ammo muhim jarayon bo‘lib, u bosqichma-bosqich, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda olib borilishi lozim. O‘qituvchining o‘ziga xos metodik yondashuvi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan topshiriqlar, shuningdek, muntazam nazorat va tahlil yozma nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari

- 1.22-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son) <https://lex.uz/docs/-5679836>
2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga 1-ILOVA 26-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 705-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/705/1000-son)
3. 26-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 705-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/705/1000-son)
4. 26-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 705-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 09/23/705/1000-son)
5. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim Milliy o‘quv dasturlari. Toshkent, 2021-yil , 252 b <https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-04-07-26>
6. 05_2cb77d3b5180193f37e853bf02885347.pdf M.Y Ayupovaning Logopediya kitobidan 400-bet
- 7.file:///C:/Users/User.AD.042/Downloads/fayl_425_20210422_1_exxP0Mb.pdf M.U Xamidovaning Maxsus pedagogika kitobidan
- 8.S.J.Yuldashev.Tasviriy sa’nat va qo’l mehnati o’qitish metodikasi.O’quv qo’llanma.T.2022.
9. .S.J.Yuldashev.Boshlangich inklyuziv sinfdan rivojlanishi meyorda va aqli zaif nutq nuqsoniga ega o’quvchilarni mayda qo’l motorikasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.Maqqolasi.NamDU.
10. .S.J.Yuldashev.Rivojlanishi meyorda bo’lgan bolalarda nutq aloqasini shakllantirish.Maqqolasi.NamDU

